

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
276 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



TURIZMGA INVESTITSİYALAR IQTISODIYOTIMIZGA IJOBIY TA'SIRI ETUVCHI OMILLARI SIFATIDA

Ayubov Ilyos Ilxomovich

SamISI, i.f.f.d., PhD, dotsent

Tursunov Qosimbek Nodirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda turizm sohasiga investitsiyalar kiritishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Turizm sektorining xizmatlar sohasining rivojlanishiga, iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi va eksport hajmining oshishiga qay darajada hissa qo'shishi o'rganilib chiqiladi. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, xorijiy va mahalliy sarmoyalarning iqtisodiy samaradorligi hamda ushbu jarayonning tarmoq rivojlanishiga ta'sirchan omillari o'rganilgan. Shuningdek, turistik xizmatlar hajmi va sifatining oshishi, ichki va tashqi turizm oqimlarining o'zgarishi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, investitsiya, iqtisodiy o'sish, infratuzilma, xizmatlar sifati, bandlik, tashqi turizm, ichki turizm, sarmoya, raqamli transformatsiya.

Abstract: This study comprehensively analyzes the impact of investment in the tourism sector on the country's economy. The contribution of the tourism sector to the development of the service sector, economic growth, employment levels and export volumes will be studied. The study examines the economic efficiency of investment in tourism infrastructure, foreign and local investment, as well as factors influencing the development of this process in the industry. Also, based on statistical data, the growth in the volume and quality of tourism services, changes in domestic and inbound tourist flows are analyzed, proposals aimed at long-term sustainable development of the industry are developed.

Keywords: Tourism, investment, economic growth, infrastructure, quality of services, employment, external tourism, domestic tourism, investment, digital transformation.

Аннотация: В данном исследовании всесторонне анализируется влияние инвестиций в туристический сектор на экономику страны. Будет изучен вклад туристического сектора в развитие сферы услуг, экономический рост, уровень занятости и объемы экспорта. В исследовании рассмотрена экономическая эффективность инвестиций в туристическую инфраструктуру, иностранных и местных инвестиций, а также факторы, влияющие на развитие этого процесса в отрасли. Также на основе статистических данных проанализированы рост объемов и качества туристических услуг, изменение внутренних и въездных туристских потоков, разработаны предложения, направленные на долгосрочное устойчивое развитие отрасли.

Ключевые слова: Туризм, инвестиции, экономический рост, инфраструктура, качество услуг, занятость, внешний туризм, внутренний туризм, инвестиции, цифровая трансформация.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda turizm strategik tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, bandlik darajasining oshishiga va xalqaro savdo balansining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, turizmga yo'naltirilgan investitsiyalar ushbu sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ta'sir etuvchi muhim omil sifatida e'tirof etib kelinadi.

Shuningdek, O'zbekiston turizm salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanib, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qator islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, yurtimizda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan qonun ishlab chiqildi. Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi;

- turizmni barqaror rivojlantirish va buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- turizm sohasida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqobatni rivojlantirish;
- turizm sohasida oshkorlik va ochiqlik[1].

Bu shuni anglatadiki yurtimizdagi islohotlar qonun tomondan ham himoyalangan va qo'llab quvvatlanadi.

Xususan, sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizmning iqtisodiy o'sishiga qo'shadigan hissasi ortishiga imkon yaratib beradi. Ushbu tadqiqotda turizm sohasiga investitsiyalar kiritishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, uning iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omillari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasiga investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni qo'llab-quvvatlash va vositachi infratuzilmani rivojlantirishda mablag' bilan ta'minlovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar turizm investitsiyalarining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganib, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sirlarni o'rganib chiqishgan.

Jumladan, Fletcher va boshqa olimlar tomonidan yozilgan tadqiqot "Tourism: Principles and Practice" asarida turizmning ko'p qirrali iqtisodiy ta'sirini o'rganib, quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatishadi. Turizm iqtisodiy o'sishning tez samaraga olib keluvchi omili bo'lib, bandlik va davlat daromadlarini ta'minlab beradi. To'g'ridan-to'g'ri sayyohlik xarajatlari darhol iqtisodiy foyda keltiradi, bilvosita va induksiya ta'sirlar esa turli sohalarda ushbu imtiyozlarni yanada kuchaytiradi[2]. Olimlarning aytishicha, sayyohlik xarajatlarning hammasi ham oqishlar yuzaga kelganligi tufayli mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirmaydi. Masalan, turistlar import qilinadigan tovarlar yoki xizmatlarni sotib olganlarida, xarajatlarning bir qismi mahalliy iqtisodiyotni tark etib, sof iqtisodiy foydani kamaytiradi. Ya'ni turistlarning mamlakat hududida iste'mol qiladigan tovar va xizmatlarini hisobga olgan holda ularning ishlab chiqarish miqdoriga qo'shish lozim. Ushbu yondashuv kamchiligi shundaki, turizmning dastlabki xarajatlarning iqtisodiyot bo'ylab qanday aylanishini to'liq yoritmagan. Shu sababli turizmga investitsiya kiritish boshqa turli tarmoqlarga qanday ta'sir qilishini va xizmatlar sohasini YaIM miqdorini oshirishga ta'sirini chuqurroq tahlil qilish lozim.

Angliyalik olimlar, Maykl Xoll va Stiven J. Peyjning ilmiy tadqiqoti "Turizm va dam olish geografiyasi: atrof-muhit, joy va makon" keng qamrovli ilmiy ish bo'lib, turizm va dam olish o'rtasidagi murakkab munosabatlarni geografik hamda ijtimoiy fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilib chiqishgan. Olimlar ilmiy tadqiqotida turizm va rekreatsiya ular egallagan muhitlar, joy-makonlarga qanday bog'liqligi va o'z navbatida shakllantirilishi batafsil ko'rib chiqishgan. Turizm va rekreatsiyaning fazoviy o'lchamlarini o'rganib, geografik omillarning turizm naqshlari va rekreatsiya faoliyatiga qanday ta'sir qilishini aytib o'tishgan[3].

Olimlar turizm va rekreatsiyaning geografik jihatlari to'liq tahlil qilingan bo'lsa-da, ba'zi sohalar keyingi o'rganishdan foyda ko'rishi mumkin. Raqamli texnologiyalarning turistik zonalariga ta'siri va raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish iqtisodiy foydani qanday oshirishi kabi ma'lumotlarni ham dalil sifatida keltirish kerak. Mahalliy hamjamiyatlarni turizmni rejalashtirishda qanday ishtirok etishi, turizm investitsiyalaridan iqtisodiy foyda ko'rish va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlarni yanada yaxlitroq tadqiq qilib chiqish lozim.

Keyingi osiyolik olimlar, Chjan, Song va Xuangning 2021-yildagi "Turizmga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: kirish strategiyalari va ta'siri" nomli tadqiqoti ko'pmillatli korxonalar (MNE) xorijdagi turizm bozorlariga chiqishda foydalanadigan strategiyalarni va ularning mezbon iqtisodiyotga keyingi ta'sirini o'rganadi. Mualliflar bozorga kirishning turli usullarini, jumladan qo'shma korxonalar, qo'shilish va qo'shib olishlar hamda to'liq egalik qiluvchi sho'ba korxonalarini tahlil qilib, har bir strategiya mahalliy iqtisodiy rivojlanish, bandlik va raqobatbardoshlikka qanday ta'sir qilishini baholangan.[4]

Tadqiqot birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning bevosita iqtisodiy ta'siriga qaratilgan. Ammo, atrof-muhitning buzilishi va madaniy ta'sirlar kabi potensial muammolarni hisobga olgan holda bunday

investitsiyalarning uzoq muddatli barqarorligi haqida soʻz yuritilmagan. Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiya loyihalarida mahalliy hamjamiyatlarning roli keng yoritilmagan. Shu sababli, jamoatchilikni jalb qilish va foyda almashish mexanizmlari ishlab chiqish turizm investitsiyalarining davlat hamda xususiy sektor tomonidan taʼminlanishiga imkon yaratish mumkin boʻladi.

Yana bir mavzuga doir asar, global istiqbol Stefan Goesling va Xoll butun dunyo boʻylab sanoat va hukumatning javobgarligi oldida turgan muammolar va toʻsiqlarni oʻrganib, barqaror turizmning rivojlanishini keng qamrovli tekshirishni taklif qilib oʻtishgan. Olimlar oʻz asarida muammolar va istiqbollar, akkreditatsiya, taʼlim va talqin, sayyohlik yoʻnalishlari, turistik korxonalar va diqqatga sazovor joylarni oʻz ichiga olgan boʻlimlarga tuzib chiqishgan[5].

Gessling va Xoll ishida yoritilgan mavzular barqaror turizmga sarmoya kiritish iqtisodiy oʻsishga qanday ijobiy taʼsir koʻrsatishini tushunish uchun kerakli manbani yaratgan, ammo baʼzi eʼtibordan chetda qolib ketgan qismlari ham yoʻq emas. Jumladan, barqaror turizm amaliyoti sayyohlarni jalb qiluvchi tabiiy va madaniy resurslarni saqlab qolish, yoʻl infratuzilmalarining doimiy jozibadorligini taʼminlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy foyda olish va uni nazorat qilish mumkinligi. Shuningdek investitsiya kiritish nafaqat foyda balki sotsial samara, yaʼni mahalliy ish oʻrinlarini yaratadi va ijtimoiy oʻsishni ragʻbatlantiradi.

Umumiy oʻrganishlar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, turizm sohasiga investitsiya kiritish nafaqat turistlar uchun qulaylik va byudjet uchun foyda, balki ijtimoiy jamiyat uchun yaxshi yashash muhiti hamda ish oʻrinlari yaratishga oʻz hissasini qoʻshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davomida monografik kuzatish, statistik abstraksiya, mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullarini oʻz ichiga olgan ilmiy izlanishlarga tizimli yondashuv keng qoʻllanildi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmga investitsiyalar xizmatlar sohasining drayver sohalaridan birini mablagʻ bilan taʼminlashdir. U iqtisodiyotning turli jihatlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, jumladan ijtimoiy soha. Yana bir eʼtiborga moyil qismi mamlakatni dunyoga tanitishning oson yoʻlidir. Ushbu turizmga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilib va matematik modellar yordamida baholab chiqamiz (1-jadval).

1-jadval. Oʻzbekiston Respublikasidagi turizm sohasining koʻrsatkichlari.¹

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
Oʻzbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni jami(ming kishi)	6748.5	1504.1	1881.3	5232.8	6626.3
Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat koʻrsatilganlar soni(ming kishi)	942	212.3	577.8	673.7	1157.1
Kiruvchi turizm(kishi)	348.7	21.7	44.4	93.8	237.7
Ichki turizm(kishi)	532.5	176.7	522.0	538.9	728.6
Chiquvchi turizm(kishi)	36.0	6.4	16.2	19.8	156.6
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalari obyektlari soni (dona)	298	277	132	163	172

Dastlab turizm sohasidagi oʻsish surʼati har bir koʻrsatkichning 2019-yildan 2023-yilgacha qanday oʻzgarganini koʻrib chiqish lozim. Hisoblash uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$Gr = \left(\frac{Fv - Iv}{Iv} \right) \times 100$$

Bu formula quyidagi koʻrsatkichlar berilgan:

Gr – Oʻsish surʼati;

1 Manba: Ushbu maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi Milliy Statistika qoʻmitasi rasmiy sayti maʼlumotlari asosida tuzilgan. <https://stat.uz>.



Fv Yakuniy qiymat;

Iv Boshlang'ich qiymat.[6, 7]

Shunday qilib, turizmni rivojlantirish va unga investitsiyalarni oshirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, uzoq muddatli ijobiy natijalarga olib keladi (2-jadval).

2-jadval. Turizmning yillik o'sish sur'ati.

O'sish sur'ati (2019-2023)
98.2
122.8
68.2
136.8
435.3
57.7

Endi esa turizmning mamlakat hududida o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR - Compound Annual Growth Rate) aniqlab olamiz. Bu uchun Uzoq muddatli tendensiyaning baholashda CAGR formulasini qo'llaymiz:

$$CAGR = \left(\frac{Fv}{Iv} \right)^{\frac{1}{n}} - 1$$

bu yerda:

Fv – 2023-yil ko'rsatkichi

Iv – 2019-yil ko'rsatkichi

n – yillar soni (bu yerda n=4)

Bu formula orqali turistik xizmatlar hajmi, turistlar soni va boshqa ko'rsatkichlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atini hisoblash mumkin. Tadqiqot uchun o'rtacha ko'rsatkich kuzatilayotgan obyektning o'zgarish tendensiyalarini baholashga imkon beradi (3-jadval) [8].

3-jadval. CAGR hisob-kitob natijalari.

Ko'rsatkich	CAGR (%)
O'zbekistonga kelgan turistlar soni (ming kishi)	-0.46
Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilganlar soni (ming kishi)	5.28
Kiruvchi turizm (kishi)	-9.14
Ichki turizm (kishi)	8.15
Chiquvchi turizm (kishi)	44.42
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar soni (dona)	-12.84

Uchinchi hisoblanadigan ma'lumot bu turistik xizmatlar ulushining o'zgarishi miqdoridir. Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan turistlar sonining umumiy turistlar soniga nisbati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{sh}(\%) = \frac{N_{US}}{N_{FT}} \times 100\%$$

Bu formula orqali turistik xizmatlardan foydalanish darajasini tahlil qilish mumkin.

Bu yerda

S_{sh}(%) –Xizmat ko'rsatish ulushi(%)

N_{US} – Turistik xizmatlardan foydalanganlar soni

N_{FT} –Chet ellik turistlar soni

Quyidagi ma'lumotlar asosida hisoblaymiz (4-jadval):

4-jadval.

Yil	N_{us} (ming kishi)	N_{FT} (ming kishi)	S_{sh} (%)
2019	942.0	6748.5	13.96%
2020	212.3	1504.1	14.12%
2021	577.8	1881.3	30.72%
2022	673.7	5232.8	12.88%
2023	1157.1	6626.3	17.46%

To'rtinchisi, Ichki turizm va kiruvchi turizm o'zaro nisbatini hisoblash kerak. Ichki turizmning kiruvchi turizmga nisbatan qancha marta katta yoki kichikligini aniqlash uchun:

$$\text{Nisbat} = \frac{\text{Ichki turizm soni}}{\text{Kiruvchi turizm soni}}$$

Bu formula orqali ichki turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini baholash mumkin (5-jadval).

5-jadval. Kiruvchi va ichki turizm soni hamda nisbati.

Yil	Ichki turizm (ming kishi)	Kiruvchi turizm (ming kishi)	Nisbat
2019	532.5	348.7	1.53
2020	176.7	21.7	8.14
2021	522.0	44.4	11.76
2022	538.9	93.8	5.75
2023	728.6	237.7	3.07

Beshinchi, chiquvchi turizm va kiruvchi turizm o'rtasidagi farq

Mamlakatga kelgan va chiqib ketgan turistlar sonining farqini aniqlash uchun:

$$\text{Farq} = \text{Kiruvchi turizm} - \text{Chiquvchi turizm}$$

Bu ko'rsatkich mamlakat turistik balansi ijobiy yoki salbiy ekanini aniqlashga yordam beradi (6-jadval).

6-jadval. Kiruvchi va chiquvchi turizm.

Yil	Kiruvchi turizm (ming kishi)	Chiquvchi turizm (ming kishi)	Farq (ming kishi)
2019	348.7	36.0	312.7
2020	21.7	6.4	15.3
2021	44.4	16.2	28.2
2022	93.8	19.8	74.0
2023	237.7	156.6	81.1

6. Dam olish tashkilotlari sonining umumiy turizm hajmiga nisbati

Turistik infratuzilmaning umumiy turizm hajmiga ta'sirini baholash uchun:

$$\text{Infratuzilma zichligi} = \frac{\text{Dam olish tashkilotlari soni}}{\text{Chet ellik turistlar soni}}$$

Bu formula orqali turistik obyektlarning turistlar soniga nisbatan yetarliligi baholanadi. Hisob-kitoblar natijalari (7-jadval):



7-jadval.

Yil	Chet ellik turistlar soni (ming kishi)	Dam olish tashkilotlari soni (dona)	Infratuzilma zichligi
2019	6748.5	298	0.0442
2020	1504.1	277	0.1842
2021	1881.3	132	0.0702
2022	5232.8	163	0.0312
2023	6626.3	172	0.0260

Endi esa yuqorida olib borilgan natijalarni umumiyashtirib jadval ko'rinishiga keltiramiz (8-jadval):

8-jadval.

Yil	Turistik xizmatlar ulushi (%)	Ichki va kiruvchi turizm nisbati	Chiquvchi va kiruvchi turizm farqi (kishi)	Infratuzilma zichligi
2019	13.96%	1.53	312.5	0.0442
2020	14.11%	8.12	155.6	0.1842
2021	30.72%	11.80	28.2	0.0702
2022	12.88%	5.74	-74.5	0.0312
2023	17.46%	3.07	80.7	0.0260

Yillar kesimida turizm ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, pandemiyadan keyingi davrda ichki turizm nisbati va turistik xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichi sezilarli darajada o'suvchi tendensiya ko'rsatgan. Xususan, 2021-yilda turistik xizmatlar ulushi 30.72%ga yetgan, bu esa pandemiyadan keyin xizmatlarga bo'lgan talabning keskin o'sishini aks ettiradi. Shu bilan birga, ichki turizm kiruvchi turizmga nisbatan ancha ustunlik qilgan, bu esa ichki bozorning turizm sektoridagi ahamiyatini oshirib borayotganidan dalolat beradi.

Chiquvchi va kiruvchi turizm o'rtasidagi farq esa 2022-yilda keskin kamaygan (-74.5 ming kishi), bu xorijiy sayohatlarga qo'yilgan cheklavlar va ichki turizmning ustuvorligidan va boshqa ta'sir etuvchi omillar natijasida yuzaga kelgan. Infratuzilma zichligi 2020-yilda eng yuqori bo'lgan (0.1842), bu esa pandemiya sababli sayyohlar soni keskin kamaygan bir davrga to'g'ri keladi. 2023-yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 0.0260 ga tushgan, bu esa turistlar sonining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, infrastrukturani yanada rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, turizm sektori pandemiyadan keyin tiklanish jarayonida bo'lib, ichki turizmning iqtisodiy samaradorligi ortib bormoqda degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizmga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston misolida olib qaranganda, pandemiyadan keyin turizm sohasining tiklanishi va o'sishi bevosita investitsiyalar hajmining oshishiga parallel ravishda o'zgardi. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi, mehmonxona va dam olish maskanlarining sonining oshishi, xizmat ko'rsatish sifati va texnologik innovatsiyalarning joriy etilishi natijasida chet ellik sayyohlar oqimi yildan-yilga tiklanib bormoqda. Buning natijasida ichki va tashqi turizm mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad keltirib, ish o'rinlari yaratish va mahalliy biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijasi sifatida quyidagi takliflar keltirish mumkin:


Birinchidan, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish.

Mehmonxonalar, transport tuzilmasi va dam olish maskanlariga investitsiyalar hajmini oshirish orqali turizm xizmatlariga infratuzilma sifatini yaxshilashdan iborat. Buning uchun, ichki va tashqi hududdan investorlarni ushbu sohaga jalb qilish, agar mavjud bo'lsa yanada qo'llab quvvatlash uchun soliq imtiyozlarini berish kerak.

Ikkinchidan, xalqaro standartlarga javob beradigan turistik obyektlar (5 yulduzli mehmonxonalar) sonini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash hamda logistika tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim. Buning uchun oliy o'quv yurtlarida shu soha mutaxassislarini o'qitish tizimini qayta standartlashtirish va rivojlangan mamlakatlarga malaka oshirishga jo'natish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan, <https://www.lex.uz/docs/-4428097>
2. Fletcher, John Edward - Fyall, Alan - Gilbert, David - Wanhill, Stephen - Tourism - Principles and Practice-Pearson (2018), 662 pages
3. Hall, C. M., & Page, S. J. (2020). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place, and Space. Routledge.
4. Zhang, H., Song, H., & Huang, G. (2021). Foreign Direct Investment in Tourism: Market Entry Strategies and Impacts. Tourism Management, 53(1), 58-74.
5. Gössling, S., & Hall, C. M. (2019). Sustainable Tourism: A Global Perspective. Routledge.
6. Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2019). Tourism Economics and Policy. Channel View Publications.
7. Endo, K. (2018). Foreign Direct Investment in Tourism: Trends and Implications. Journal of Tourism Studies, 28(3), 245-261.
8. UNWTO (2020). Tourism and Economic Growth: Key Trends and Insights. United Nations World Tourism Organization.
9. WTTC (2021). Economic Impact of Travel & Tourism 2021. World Travel & Tourism Council.
10. United Nations Sustainable Development Goals (2030). Sustainable Tourism Development Framework. United Nations.
11. <https://samarkandtourism.uz/news/investitsiyalar-turizmning-harakatlantiruvchi-kuchi/>.
12. <https://president.uz/oz/lists/view/8049/>.
13. <https://lex.uz/mact/-4061079>.
14. <https://www.investopedia.com/financial-edge/0212/5-ways-to-invest-in-travel-and-tourism.aspx>.
15. <https://www.tdf.gov.sa/content/TDF/TDF/en/investmentportal.html>.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100